



TALABALARNING UNIVERSITET TA'LIM MUHITIGA MOSLASHUVIGA
TA'SIR QILUVCHI TA'LIMiy OMILLAR

Raxmatullayev Farxod Baxtiyor o'g'li

O'zMU Psixologiya kafedrası

<https://scholar.google.com/citations?user=hE5taCkAAAAJ&hl=ru>

ANNOTATSIYA. *Ushbu maqolada talabalarning akademik moslashuviga ta'lim yo'nalishlarining ta'siri R. Shamionovning "Akademik moslashuv" metodikasi va Krusskal-Uollis mezoni asosida o'rganilgan (n=542). Natijalarga ko'ra, tabiiy fanlar talabalari aksariyat moslashuv komponentlari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichni namoyon etdi. Aniq fanlar talabalarida psixofiziologik chidamlilik yuqori bo'lsada, muloqot va motivatsiyada qiyinchiliklar aniqlandi. Ijtimoiy-gumanitar yo'nalish talabalarida esa psixofiziologik zo'rqi sh yuqoriligi kuzatildi. Tadqiqot xulosalari har bir yo'nalish xususiyatidan kelib chiqib psixologik yordam ko'rsatish zarurligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *akademik moslashuv, ta'lim yoyo'nalishlari, Krusskal-Uollis mezoni, psixofiziologik komponent, tabiiy fanlar, aniq fanlar, ijtimoiy-gumanitar fanlar.*

АННОТАЦИЯ. *В статье изучено влияние направлений обучения на академическую адаптацию студентов с использованием методики Р. Шамионова и критерия Краскела-Уоллиса (n=542) Студенты естественных наук показали наивысшие результаты по большинству компонентов адаптации. У студентов точных наук выявлена высокая психофизиологическая устойчивость, но отмечены сложности в общении и мотивации. Студенты социально-гуманитарных наук продемонстрировали высокий уровень психофизиологического напряжения. Результаты обосновывают необходимость дифференцированной психологической поддержки.*

Ключевые слова: *академическая адаптация, направления обучения, критерий Краскела-Уоллиса, психофизиологический компонент, естественные науки, точные науки, социально-гуманитарные науки.*

ABSTRACT *This study examines the impact of academic majors on students' academic adaptation using R. Shamionov's methodology and the Kruskal-Wallis test (n=542) Natural Science students scored highest in most adaptation components. Exact Sciences students showed high psychophysiological endurance but faced challenges in communication and motivation. Social Sciences and Humanities students displayed higher levels of psychophysiological stress. Findings emphasize the need for tailored psychological support for each major.*

Keywords: *academic adaptation, academic majors, Kruskal-Wallis test, psychophysiological component, natural sciences, exact sciences, social sciences and humanities.*



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Kirish. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar sharoitida talaba-yoshlarning ta'lim muhitiga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlash dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Xususan, birinchi kursga qabul qilingan talabalar uchun oliy ta'lim muassasasidagi yangi akademik talablar, ta'lim shakllari hamda ijtimoiy-psixologik muhitga moslashish jarayoni murakkab bosqich hisoblanadi. Ushbu jarayonning qanday kechishi talabalarning kelgusi akademik o'zlashtirishi, kasbiy shakllanishi va shaxsiy rivojlanish samaradorligini belgilab beradi.

Talabalarning akademik moslashuvi ko'p komponentli va murakkab tizim bo'lib, u shaxsiy, emotsional, kognitiv, motivatsion, psixofiziologik va kommunikativ omillar bilan uzviy bog'liqdir. Biologik, psixologik va pedagogik xususiyatlardan tashqari, talaba tahsil olayotgan ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik xususiyati) ham ushbu moslashuv dinamikasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Turli yo'nalishlar (masalan, tabiiy, aniq va ijtimoiy-gumanitar fanlar) o'quv yuklamasining xarakteri, axborotni qayta ishlash usullari va shaxslararo muloqot darajasi bilan bir-biridan farq qiladi, bu esa moslashuv jarayonida o'ziga xos farqlarni keltirib chiqaradi. Tadqiqotimizda 542 nafar sinaluvchi qatnashdi. Ularning ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahlili 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Shamionov R, Grigorieva M, Grinina E, va A. Sozonniklarning “Akademik moslashuv” metodikasi shkalalarining Krusskal Uollis mezonini bo'yicha ta'lim yo'nalishi tahlili (Kruskal Uollis mezonini asosida n=542)

Shkalalar	Ta'lim yo'nalsihi	N	O'rtacha Rang	Kruskal Uollis mezonini	p
Shaxsiy komponent	Ijtimoiy-gumanitar fanlar	260	279,30	9,491	0,009**
	Tabiiy fanlar	146	290,14		
	Aniq fanlar	136	236,57		
Emotsional baholash komponenti	Ijtimoiy-gumanitar fanlar	260	276,85	8,068	0,018*
	Tabiiy fanlar	146	291,17		
	Aniq fanlar	136	240,15		
Kognitiv komponent	Ijtimoiy-gumanitar fanlar	260	278,79	6,948	0,031*
	Tabiiy fanlar	146	286,56		
	Aniq fanlar	136	241,39		
Motivatsion komponent	Ijtimoiy-gumanitar fanlar	260	277,97	7,674	0,022*
	Tabiiy fanlar	146	288,95		



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



	Aniq fanlar	136	240,40		
Psixofiziologik komponent	Ijtimoiy-gumanitar fanlar	260	262,15	7,776	0,020*
	Tabiiy fanlar	146	258,10		
	Aniq fanlar	136	303,76		
Kommunikativ komponent	Ijtimoiy-gumanitar fanlar	260	276,18	6,226	0,044*
	Tabiiy fanlar	146	288,80		
	Aniq fanlar	136	243,97		
Akademik moslashuvning yaxlit bahosi	Ijtimoiy-gumanitar fanlar	260	277,48	6,705	0,035*
	Tabiiy fanlar	146	287,99		
	Aniq fanlar	136	242,37		

Izoh: *- $p < 0.05$; **- $p < 0.01$

Shamionov R, Grigorieva M, Grinina E, va A. Sozonniklarning “Akademik moslashuv” metodikasi shkalalarining ta’lim yo’nalishi bo’yicha tahlili shuni ko’rsatadiki, Shaxsiy komponent ($H=9,491$; $p < 0.01$), Emotsional baholash komponenti ($H=8,068$; $p < 0.05$), Kognitiv komponent ($H=6,948$; $p < 0.05$), Motivatsion komponent ($H=7,674$; $p < 0.05$), Kommunikativ komponent ($H=6,226$; $p < 0.05$) va Akademik moslashuvning yaxlit bahosi ($H=6,705$; $p < 0.05$) shkalalari bo’yicha eng yuqori ko’rsatkich tabiiy fanlar yo’nalishida (290,14) tahsil olayotgan talabalarga tegishli bo’ldi. Bu natija ushbu yo’nalish talabalarining o’quv jarayoniga nisbatan ijobiy hissiy munosabatda ekanliklaridan dalolat beradi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo’nalishi talabalari deyarli barcha shkalalarda ikkinchi o’rindaligini ko’rishimiz mumkin. Bu natija ularning o’quv jarayoniga nisbatan yaxshi moslashuvini tasdiqlaydi.

Faqatgina Psixofiziologik komponent ($H=7,776$; $p < 0.05$) bo’yicha eng yuqori ko’rsatkich Aniq fanlar yo’nalishi (303,76) talabalarida qayd etildi. Bu natija ularning o’quv yuklamalariga jismoniy va psixofiziologik jihatdan chidamliligi yuqori ekanligini ko’rsatishi mumkin. Aniq fanlar yo’nalishi talabalari ko’p hollarda eng past o’rtacha ranglarni ko’rsatishgan. Bu ularning akademik moslashuvda shaxslararo muloqot yoki motivatsion jarayonlar bilan bog’liq o’ziga xos qiyinchiliklar mavjud bo’lishi mumkinligidan darak beradi.

Xulosa. Olingan natijalar shuni ko’rsatadiki, talabalarining akademik moslashuvini ta’minlashda ularning mutaxassislik yo’nalishini hisobga olish kerak. Tabiiy fanlar talabalari umumiy moslashuvda muvaffaqiyatliroq ko’ringani holda, Aniq fanlar talabalariga muloqot va shaxsiy rivojlanish borasida psixologik yordam ko’rsatish maqsadga muvofiq. Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo’nalishi talabalari Shaxsiy va Emotsional komponentlar shkalalariga ko’ra o’z mutaxassisliklariga mos ravishda muloqotga ochiqligi va hissiy intellekti



rivojlanganligidan dalolat beradi. Psixofiziologik komponent shkalasi bo'yicha esa ular eng past o'rtacha ranglardan biriga ega (262,15). Bu shuni anglatadiki, ijtimoiy-gumanitar yo'nalish talabalari o'quv jarayonidagi psixologik zo'riqlashlarni ko'proq his qilishadi yoki ularda charchoq darajasi boshqa guruhlariga nisbatan tezroq namoyon bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Адаптация студентов Северного Кавказа в вузах г. Самары (опыт практической работы) / Березин С.В., Козлов Д.Д., Лисецкий К.С. и др. Самара, 2004.
2. Бабахан Ю.С. Основные психологические механизмы адаптации студентов к учебной деятельности // Психологический журнал. 2003. №6.
3. Поваляева М.А. Адаптация студентов к обучению в высшем учебном заведении // Социализация и адаптация молодежи в условиях полиэтнического региона: Сб. научных трудов. Краснодар, 2003.
4. Реан А.А., Кудашев А.Р., Баранов А.А. Психология адаптации личности. СПб., 2008